

"YASHIL IQTISODIYOT" NI MODERNIZATSIYA QILISH VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZARO MUTANOSIBLIGI MASALALARI

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali,

baxrom3500@gmail.com

G‘afforova Visola Niyatulla qizi,

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, talaba

visola2508@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologiya va yashil iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi, iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’siri hamda natijalari ko‘rib chiqilgan. Mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytirilishi uchun "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish hamda uning afzalliklari yoritib berilgan. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yashil iqtisodiyot, ekologik muammolar, yashil taraqqiyot, ekologik xavf, prognozlash, eko-innovatsiyalar, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik texnologiyalar.*

Dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar, iqlimning o‘zgarishi, tabiat hodisalari insoniyatni yangi tahdidlar kutayotganidan darak beradi. Dunyo aholisi ko‘payib bormoqda, tabiiy resurslar cheklangan bo‘lib, ularning zaxirasi muttasil kamayib bormoqda. Bunday vaziyat dunyo mamlakatlarini og‘ir ahvolga solib qo‘ymoqda. Bu holatda eng avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvi kuzatilmoqda. Ekspertlar vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun jahon iqtisodiyotida «yashil taraqqiyot» tamoyillarini joriy etish zarurligini ta’kidlashmoqda. Bunday yondashuv BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o‘z aksini topgan.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalari rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi.

Eko-innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda,

atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish orqali sezilarli va aniq o‘sishga qaratilgan har qanday yangilik shakli sifatida ta’riflanadi, yashil iqtisodiyotning esa umume’tirof etilgan ta’rifi mavjud emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha

mutaxassislari(UNEP) „yashil iqtisodiyot“ni iqtisodiy faoliyat sifatida hisobga olib, bu tushunchani keng tushunishni taklif e'tadi, ya'ni „yashil iqtisodiyot insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi“ degan ta'rifni beradi.

“Yashil iqtisodiyot” ning bu ta'rifi deyarli yaxshi ma'lum bo'lgan barqaror rivojlanish konsepsiyalaridan farq qilmaydi.

“Yashil iqtisodiyot” ni ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlarining emissiyasini nazorat qilish va kamaytirish, iqlim o'zgarishini kuzatish va prognozlash, shuningdek, energiya va resurslarni tejash texnologiyalarini va qayta tiklanadigan energiya manbaalari uchun texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish tushuniladi. Bu binolar va inshootlarni harorat, namlik va shamol yukining keskin o'zgarishlaridan himoya qilish uchun texnologiyalar va materiallarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ekologik toza mahsulotlar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi (ozuq-ovqat, tabiiy tolalar) va iste'mol tovarlarini (kimyoviy qo'shimchalarsiz tabiiy va tabiiy asosda dorilar va shaxsiy parvarish mahsulotlari) ishlab chiqarish, boshqacha aytganda, „yashil iqtisodiyot“ iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga hayot sifatini va turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashadigan xo'jalik faoliyatining turlari va natijalarini o'z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

Yashil o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori “yashil” o'sish ko'rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o'rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqalarida Qirg'iziston mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan. O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga

almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yoʻnalishlarda ishlarni olib borish.

Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim boʻladi.

Toʻrtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini taʼminlash maqsadida neʼmatlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham koʻrish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy oʻsib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga moʻljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Xulosa

Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, „yashil iqtisodiyot“ mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, „yashil iqtisodiyot“ tarmoqlarida yangi ish oʻrinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni ragʻbatlantiradi. „Yashil iqtisodiyot“, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning oʻsishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan taʼminlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni taʼminlaydi. Shu bilan birga, „yashil iqtisodiyot“ga oʻtish iqlim oʻzgarishini, foydali qazilma minerallarning yoʻqolishini va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon boʻladi, yaʼni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch toʻplagan, oʻz qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yoʻnaltirilgan model tanlamas ekan, globallashtirish sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yoʻq boʻlib ketishiga ham borish xavfi yuzaga keladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 634-635.
2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 151-156.

3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.
4. Баҳром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.
5. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.
6. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.
7. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.
8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijestr/article/view/130>
9. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijestr/article/view/131>
10. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijestr/article/view/135>
11. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>
12. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
13. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.
14. Ali o‘g‘li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 30-33.
15. Норбеков, Х., & Туйчиева, Н. (2022). Формирование конкурентных преимуществ компании . Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb

Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 589–592.

Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5351>